



INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI IQTISODIY AYLANMAGA JALB ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qudratov Jahongir qahramon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
yuridik departamenti bosh yuriskonsulti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14054125>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- Noyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 05- Noyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 07- Noyabr 2024 yil

KEY WORDS

*iqtisodiy aylanma, startap,
intellektual mulkni baholash,
muhofaza.*

ABSTRACT

Zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodiyotda intellektual mulk (IP) kompaniyalar uchun innovatsiyalarni rag'batlantiradigan va ularning faoliyatiga sezilarli qiymat qo'shadigan muhim aktivga aylandi. Biroq, IPni nomoddiy kontseptsiyadan moddiy iqtisodiy resursga aylantirish puxta huquqiy, moliyaviy va strategik rejalashtirishni talab qiladi. Intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy aylanmaga jalb qilish jarayoni huquqlarni ta'minlash va aktivlarni himoya qilishdan tortib, litsenziyalash, sotish yoki hamkorlik qilish orqali bozorda foydalanishni osonlashtirishgacha bo'lgan turli bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqola intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy aylanmaga jalb qilishning o'ziga xos jihatlari o'rganadi, bunda asosiy e'tibor IP aktivlaridan iqtisodiy foyda olish uchun jalb qilingan strategik, huquqiy va amaliy mexanizmlarga qaratiladi.

Intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy aylanmaga jalb qilishning turlari ularni tijoratlashtirishning usullari bilan bog'liq deyish mumkin. Intellektual mulkni obyektlari tijoratlashtirish amaliyotdagi turli ustuvorliklar beradi. Masalan, intellektual mulk egalari intellektual mulk obyektlarini korxonaga ustav kapitaliga kiritish orqali real pul mablag'larini jalb qilmasdan firma ta'sischi bo'lishlari mumkin. Bunda Intellektual mulk obyektining bozor qiymati baholatilgan holda uning qiymati miqdorida nomoddiy aktiv sifatida korxonaning ustav kapitaliga qo'shgan holda korxonaning tashkiliy huquqiy shaklidan qat'iy nazar (mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat yoki aksiyadorlik jamiyati va h.k) mulkdor uning hissadoriga aylanishi mumkin.

Mazkur usuldan qo'shma korxonalar va strategik aliyanlarni tashkil etishda ham foydalanib kelinadi. Bunda qo'shma korxonaga tuzilayotganda texnologiyaga egasi (intellektual mulk mulkdori) texnologiyani yangi tashkil etilayotgan korxonaga ustav kapitaliga ulush sifatida o'tkazib beradi. Intellektual faoliyat natijalari tarzidagi hissalar huquq egasining ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlariga doir huquqlari, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovarlarning kelib chiqish joyi nomi, muallif yoki boshqa huquq egasining EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga mutlaq huquqlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday nomoddiy aktivlarning hissa sifatida ustav kapitaliga kiritish yozma

shartnoma bilan rasmiylashtirilib, O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Ustav kapitalida intellektual mulkdan foydalanish pul mablag'larni ustav fondiga yo'naltirmasdan va kreditlarni jalb qilmasdan ustav kapitalini shakllantirishga imkon beradi. Shuningdek, intellektual mulkni ustav kapitalida amortizatsiya qilish va uni haqiqiy pul bilan almashtirishga, ya'ni intellektual mulkni kapitallashtirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, mualliflar (ixtirochilar) va yuridik shaxslar – intellektual mulk obyektlari egalari pul mablag'larini yo'naltirmasdan ham yuridik shaxsning muassisi bo'lishi mumkin.

Intellektual mulk ustav kapitaliga kiritilganda, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqlari yuridik shaxsga o'tadi. Ushbu huquqlar pul ko'rinishida baholanadi va yuridik shaxsning balansida nomoddiy aktiv sifatida qayd etiladi. Ushbu huquqlarni begonalashtirish mumkin, masalan, majburiyatlarni undirishda ular kreditorlarga berilishi mumkin.

Bugungi kunda intellektual mulk obyektlarini ustav jamg'armalariga kiritib faoliyat boshlashi mumkin bo'lgan biznesning eng keng tarqalgan turi startap bizneslardir. Startap – bu rivojlanish bosqichida bo'lgan va o'z biznesini innovatsion g'oyalar yoki yangi texnologiyalar asosida quradigan yangi tashkil etilgan kompaniyadir.

Startap kompaniyalar ulardan foydalanishning qonuniy asoslarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqni boshqalarga yoki ulardan foydalanish huquqini startap kompaniyalarga o'tkazish zarur. Amaldagi intellektual mulk obyektlari ko'pincha universitet yoki ilmiy-tadqiqot institutlariga yoxud intellektual mulk mualliflariga tegishli bo'ladi.

Bunday muammolarga uchramaslik uchun, eng avvalo, birinchidan, muayyan intellektual mulk obyektlariga nisbatan uchinchi shaxslarning huquq va majburiyatlari mavjud emasligini aniqlash lozim. Bunda ushbu intellektual mulk obyektlaridan foydalanishni cheklaydigan har qanday bitimlar yoki kelishuvlar imzolanganligini aniqlash maqsadga muvofiq (masalan, litsenziya shartnomalari, garov shartnomalari, nou-xauni o'tkazish shartnomalari kabi). Bu borada intellektual mulk obyektlariga nisbatan uchinchi shaxslarning huquq va majburiyatlari mavjud bo'lgan taqdirda ular intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni, ya'ni ulardan startap kompaniyasida foydalanish huquqini amalga oshirish uchun to'siq bo'lmasligini aniqlash choralari ko'rish kerak. Bunda intellektual mulk obyektlariga nisbatan uchinchi shaxslarning huquq va majburiyatlari mavjud bo'lmasa hamda bunday huquqlar universitet yoki tadqiqot institutiga tegishli bo'lsa, ushbu huquqlarni startap kompaniyasiga o'tkazish tartibini aniqlash lozim bo'ladi.

Bunday vaziyatda quyidagi ikki usul orqali intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni startaplarga o'tkazish mumkin:

intellektual mulkdan foydalanish huquqini startap kompaniyaga o'tkazadigan litsenziya shartnomasi orqali;

intellektual mulkka bo'lgan huquqni startap kompaniyasiga o'tkazish to'g'risidagi bitim tuzish orqali.

Bu yerda Intellektual mulk obyektining bozor qiymati baholatilgan holda uning qiymati miqdorida nomoddiy aktiv sifatida korxonaning ustav kapitaliga qo'shning eng katta muammosi Intellektual mulk bahosini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi.

Intellektual mulk obyektini baholash haqida so'z ketganda, quyidagi 2 ta muhim jarayonga ham to'xtalib o'tish lozim.

Birinchisi, intellektual mulk obyektini dastlabki bozor qiymatini, uning muhofaza davri tugagunga qadar ushlab turish. Bilamizki, intellektual mulk obyektini baholashda uning mulkiy qiymati, huquqiy muhofaza hujjati mavjudligi, litsenziya shartnomalarining ko'pligi inobatga olinadi. Bular qatorida, shuningdek ushbu intellektual mulk obyektini muhofaza davri mobaynidagi qiymatining ushlab turilganligi ham muhim sanaladi. Ushbu tamoyilni bir xilda ushlab turish bevosita huquq egasi (muallif)ning zimmasida bo'ladi. Aynan ushbu jihat intellektual mulk obyektini qiymatini baholashning "tartibga solib turish koeffitsiyenti"ga mos tushadi. Ushbu koeffitsiyent qoidasiga ko'ra, intellektual mulk obyektini amaldagi (hozirgi) bahosini uning kelgusidagi (odatda muhofaza hujjati muddatini tugashiga bog'liq) bahosiga moslashtirish bilan bog'liqdir.

Ikkinchi jarayon esa ergashma huquq hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu huquq mualliflik huquqi obyektlari bilan bog'liqdir. Mazkur tushuncha ingliz tilida "resale right" deb nomlanadi hamda grafik asarlar (rasm, keramika, fotografiya, haykaltaroshlik) muallifi asar mulkdoridan o'z asarlarini takrorlash huquqini (foydalanish huquqini) amalga oshirish imkoniyatini berishni talab qilishga haqlidir. Shu sababli ham bu tushunchaga amaliyotda "kuzatib borish", "qayta sotuv doktrinasi" kabi atamalar qo'llaniladi. Xalqaro huquqda esa ushbu tushuncha "haqdor sifatida ishtirok etish" tarzida ham talqin qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ergashma huquq 1886-yildagi Adabiy va badiiy asarlarning huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Biroq ushbu konvensiya uning ishtirokchi-davlatlariga mazkur qoidani milliy qonunchilikka kiritilishi majburiyat sifatida belgilamaydi.

Yuqorida takidlab o'tilgani kabi, Intellektual mulkni iqtisodiy aylanmaga jalb qilish uchun korxonalar ustav kapitaliga kritishda boshqa aktivlar singari nomoddiy aktivlarning ham pul ko'rinishidagi bahosi hisoblab chiqarilishi lozim. Intellektual mulkning bozor qiymatini baholashda qoida tariqasida, xarajatlarga, bozorga va daromadga yondashgan holda aniqlanishi mumkin. Bunda harajatlar – intellektual mulk obyektini ishlab chiqarish bugungi kunda qancha mablag' talab etishiga bog'liq bo'lsa, bozor esa – bozorda maxsulot likvidligi va shaffof bozorda mazkur maxsulot qanchaga baholanishiga e'tibor qaratiladi. Daromadni hisobga olishda esa mazkur aktivlardan kelib chiqadigan potensial daromad yoki bo'lmasa pul oqimining hozirdagi qiymatiga e'tibor qaratiladi. Vakolatli tashkilot tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan yoki bo'lmasa, huquqiy himoya obyekti hisoblanadigan patentlar, EHM dasturlari, ma'lumotlar bazasi va tovar belgilari kabi intellektual mulklarni baholashning uchta asosiy usuli mavjud. Baholovchi tomonidan muayyan vaziyatdan kelib chiqib hamda mavjud ma'lumotlarni hisobga olib mazkur baholash usullaridan birini yoki bir nechtasini birgalikda qo'llashi mumkin.

Bozor qiymatiga (Market-based) asoslangan usulga ko'ra baholanishi lozim bo'lgan intellektual mulk obyektining qiyosiy bozor qiymatini belgilashda mazkur aktivning oxirgi o'xshash bozor bitimlari narxidan kelib chiqiladi. Bozor qiymatiga asosan taqqoslanayotgan intellektual mulk muayyan narxga ega bo'lgan holatlarda mazkur narxga yaqin narxlarda mulkni tasarruf qilish mumkinligi haqidagi taxmin yotadi.

Xarajatlarga asoslangan (Cost-based) usuli xarajatlarga asoslangan metodologiya ya'ni intellektual mulk obyekti bo'lgan aktivni yaratishning haqiqiy tarixiy xarajatlari yoki bo'lmasa, uning o'rnini bosishi mumkin bo'lgan qiymatni belgilovchi vositalar asosida aktivning qiymatini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bunda intellektual mulk obyektining o'rnini

bosuvchi qiymatni belgilash intellektual mulk himoyasini "loyihalashtirish" yoki almashtirish xarajatlari (narxi)ni aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Daromadlarga asoslangan (Income-based) usul, intellektual mulk obyektining, xususan, patent qiymati mazkur patentlardan foydalanish orqali kelajakda olinishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining oqimi prognozidan kelib chiqadi. Unga ko'ra, ushbu yondashuv intellektual mulk obyektini hisobga olgan holda unga qo'shilgan narxni belgilash va u orqali nomoddiy aktiv qiymatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unga ko'ra nomoddiy aktiv bahosi sotilgan mahsulot hajmi hamda foyda olish uchun intellektual mulk obyektining ustama narxini aniqlash orqali belgilanadi.

Shu bilan birga, nomoddiy aktivni baholash uning foyda prognoziga ta'sir qilishi ehtimolini ham hisobga olish lozim. Bunda bahoda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavf omillariga ko'ra diskontlangan (chegirmalangan) hamda kelishi mumkin bo'lgan daromad asosida hisoblanadi. Mazkur usul amaldagi aktivning asl qiymatni ko'rsatadi. Ushbu usul sekyurizatsiya (barqaror pul oqimlarini keltirib chiqaradigan aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali moliyalashtirishni jalb qilish shakllaridan biri) oldidan baholash uchun foydalaniladigan ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi.

Diskontlangan pul oqimi uslubi (Discounted cash flow method) ko'pincha alohida shaxslar intellektual mulk huquqining pul qiymatini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu intellektual aktivlardan kelajakda olinadigan daromadlar bozor royaltlaridan kelib chiqadi.

Daromadlar (Income-based methodologies) yondashuvi istiqbolli metodlar ko'pincha diskontlangan (chegirmalangan) pul oqimi (Discounted Cash Flow, DCF) tahliliga asoslangan bo'lib, bunda faqat nomoddiy aktivlar hisobiga o'tadigan kelajakdagi pul oqimlarining bir qismigina diskontlanadi. Pul oqimining bunday taqsimlanishi, pul oqimining o'zini prognozlash va munosib diskont stavkasini baholash bilan birga, diskontlangan (chegirmalangan) pul oqimi tahlilining eng qiyin bosqichlardan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan, diskontlangan (chegirmalangan) pul oqimi tahlili intellektual mulkni baholashning puxta o'ylangan uslubi hisoblanadi. Diskontlangan (chegirmalangan) pul oqimi yoki pulning davriy qiymati tahlili diskont stavkasini qo'llagan holda kelajakda kutilayotgan foydaning bugungi kun pul qiymatiga mutanosibligini ta'minlash orqali hisob-kitob qilinadi

Amalda daromad yondashuvi qisman retrospektiv hisoblanadi, chunki ko'pincha daromad prognozlarini olishda o'tgan davrlarda olingan daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bunda hisoblash formulasiga o'tgan vaqtdagi natijalar, holatlar va sohaviy shartsharoitlar asnoda kelajakdagi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bahosi kiritiladi. Bu borada ipso facto, ya'ni kelajakda olinadigan daromad hamda foydalarni prognozlash bilan bog'liq murakkabliklar ham yuzaga kelish ehtimoli bor. Patentlangan ixtironing moliyaviy davri ko'p hollarda uning yuridik (muhofaza) muddatidan (20 yil) kam bo'ladi. Buning asosiy sababi esa, patentlangan tovarning amalda mavjud bo'lish davriga ta'sir etuvchi biotexnologiyalar sohasidagi tezkor rivojlanishlar bilan ifodalanadi. Shuningdek, raqobatchi korxonalar patentlangan texnologiyaning dizayniga yaqin yoki foydalanilayotgan texnologiyalarnig ekvivalenti miqdorida ishlab chiqishi mumkin bo'ladi hamda mazkur vaziyatlarda patentlangan texnologiyadan ko'p miqdorda foyda olishning imkoni bo'lmahganligi bois uning sof qiymati pasayadi.

Har bir yondashuvga asosan olingan natijalarga muvofiq baholash obyekti bo'lgan aktiv qiymatining yakuniy asl miqdori aniqlanadi. Bu o'z navbatida baholashning turli

yondashuvlari va usullari asosida olingan maxsulot baholarini umumlashtirish hisoblanadi. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarini garovga qo'yish orqali bank kreditlaridan foydalanish ham Intellektual mulkni iqtisodiy aylanmaga jalb qilishning qulay imkoniyati hisoblanadi. Mazkur usuldan dunyo amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi.

Intellektual mulk huquqlari bilan ta'minlangan qarz mablag'larini olish) - yangi va juda tez rivojlanayotgan ijodiy va yuqori texnologiyali iqtisodiyotni moliyalashtirish vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, aksiyalar, birja yoki investitsiya fondlarining an'anaviy vositalari bo'lgan kompaniyalar ulushini sotib olish yoki garovga qo'yish ushbu vositaning rivojlanishiga yordam beradigan omillar sanaladi va juda jozibali investitsiya vositasi hisoblanadi.

Bunda kredit oluvchi bo'lgan ishlab chiqarish va (yoki) xizmat ko'rsatish kompaniyasi uchun intellektual huquqlarning mavjudligi qarz oluvchining ishonchliligini baholash uchun muhim omil hisoblanadi va uning to'lov qobiliyati hamda daromad manbayining barqarorligini kafolatlaydi.

Tijorat muomalasiga kiritilgan intellektual mulk huquqlaridan foydalanishning ushbu turida ular taqdim etadigan ortiqcha qiymatni baholash uchun shunga o'xshash mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) bilan taqqoslanadi va qarz oluvchining pul oqimida eksklyuzivlik mavjudligini aniqlashga imkon beradi.

Kreditor va qarz oluvchi qanday huquqlarga ega bo'lishidan qat'i nazar – allaqachon joriy qilingan yoki faqat muomalaga kiritilishi rejalashtirilgan, kredit uchun garovning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, mol-mulk garovi kabi o'zaro munosabatlarni murakkablashtiradigan bir qator omillar mavjud. Mazkur omillar tarkibiga quyidagilar kiradi:

a. Huquqlarning beqarorligi. Aslida, na mualliflik huquqi, na patent huquqlari mazkur huquqlar qabul qilinishidan boshlab uchinchi shaxslarning da'volaridan holi emas. Bunda patentga nisbatan istalgan vaqtda har qanday shaxs tomonidan e'tiroz bildirilishi mumkin, masalan, texnik yoki dizayn jihatidan modelning yangi emasligi yoki patent noto'g'ri shaxsga berilganligi to'g'risida dalillar taqdim etilishi mumkin. Istalgan vaqtda mualliflik huquqi bilan himoyalangan obyektlar nuqtai nazaridan to'liq yoki qisman qarz olish to'g'risida nizo kelib chiqishi mumkin;

b. Huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning murakkabligi. Ishlab chiqarish sohasida, dasturiy ta'minot sohasida eksklyuziv huquqlarning buzilishi, agar ular mahsulotlarning tashqi ko'rinishiga taalluqli bo'lmasa, huquqlar buzilishini aniqlash qiyin bo'ladi. Mazkur holatlarda ishlab chiqaruvchilar reinjinerengga qarshi maxsus choralar ko'rishadi. Bunda "raqamli" mahsulotlarni internetda noqonuniy tarqatishga qarshi turish ham katta kuch talab qiladi. Natijada, intellektual huquqlar orqali ta'minlanadigan pul oqimi istalgan vaqtda kamayishi mumkin. Buni qonunbuzarliklarni to'xtatish yoki sud himoyasi orqali zararni qoplash orqali tiklanishi mumkin, ammo bu qo'shimcha vaqt va xarajatlarni talab qiladi;

c. Qiymatning beqarorligi. Texnologik rivojlanish, yangi texnik yechimlarning paydo bo'lishi, dizayn sohasining jadal rivojlanishi tufayli huquqning qiymati va shunga mos ravishda tijorat ahamiyati ham sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Bu holatda asl qiymatni aniqlash (eksklyuziv huquqqa ega bo'lishning mumkin bo'lgan foydasi) ham oson ish emas;

d. Hududiy qaramlik. Mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar bozorlari mintaqaviy yoki hatto xalqaro tamoyillar bo'yicha tobora kengayib borishiga hamda raqamli xizmatlar bozori globallashtirishiga qaramasdan intellektual mulkka oid huquqlar milliylik asosida

shakllantiriladi. Intellektual mulk huquqlaridn bir davlat hududida foydalanish yoki uning ushbu davlatda mavjudligi, ular uchun boshqa davlat hududiga hech qanday kafolatlar yoki imtiyozlar bermaydi.

e. Turli hududlarda huquqiy muhofazadagi farqlar. Intellektual mulk huquqlarning hududiy printsiptan turli mamlakatlardagi intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishning turli xususiyatlari kelib chiqadi. Amaliyotga ko'ra dunyoning atigi 97 davlatida foydali model uchun patent olish mumkin, shu bilan birga ushbu mazkur davlatlarning barchasida ham bir vaqtning o'zida ham ixtiroga, ham foydali modelga patent uchun ariza berishga yo'l qo'yilmaydi. Intellektual mulk obyektlari nisbatan mulk huquqlarning garovi uchun yana bir muhim bo'lgan omil borki, bu turli mamlakatlarda bir xil intellektual mulk obyektiga bo'lgan eksklyuziv huquqlarning turli xil amal qilish muddatlarining mavjudligida.

f. Begonalashtirish cheklovlari. Har qanday intellektual mulk obyektlariga nisbatan egalik huquqidan ham hatto mulkni tasarruf etish huquqi mavjud bo'lsada, garov sifatida foydalanib bo'lmaydi. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1105-moddasiga ko'ra tovar belgisiga bo'lgan huquqni, boshqartirib u tovar yoki uning tayyorlovchisi haqida chalg'ishga sabab bo'lishi mumkin bo'lsa, boshqa shaxsga berishga yo'l qo'yilmaydi. Bunga kodeksning 1099-moddasida belgilangan holatni ya'ni yuridik shaxsning firma nomidan unga tegishli tovar belgisida foydalanilishi mumkinligi holatini olish mumkin.

Yuqoridagilar va boshqa shu kabi mumkin bo'lgan muammolarni ma'lum bir tarzda yumshatish uchun kredit shartnomalari qarz oluvchi bajarishi kerak bo'lgan bir qator shartlarni o'z ichiga oladi.

Intellektual mulkni iqtisodiy aylanmaga jalb qilishda kredit berish nuqtai nazaridan an'anaviy, yirik biznesga kredit berishda, uni intellektual mulk huquqlar bilan ta'minlanganligi ham juda istiqbolli hisoblanadi. Qoida tariqasida, patentlangan mualliflik huquqi obyektlarining va foydalaniladigan keng assortimentning mavjudligi biznes obyektlarini yuritish uchun pul oqimining barqarorligini anglatadi. Bundan tashqari, biznes uchun nomoddiy aktivlarning qiymati ishlab chiqarish uskunalari, binolar yoki boshqa moddiy mulkka qaraganda muhimroq bo'lishi mumkin.

Jahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) 2020-yilda Yevropa mamlakatlarida, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya, Fransiya, Germaniya va Avstriya 2014-2018-yillar davrida ixtirolar uchun berilgan patentlarning o'sish dinamikasini ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrdagi eng katta o'sish (2014-2018) Avstriyada va 47%, eng past esa Ispaniyada 4% ni tashkil etgan. Bundan tashqari, Germaniyada ushbu ko'rsatkich bor - yo'g'i 22% ni tashkil etsada patent 101556 ta patent berib mazkur mamlakatlar orasida mutlaq yetakchilikni egallagan.

Kreditlar berish bo'yicha eng katta qulayliklar yaratib berilgan davlat misolida AQSh tajribasini ko'rsatish mumkin, rivojlangan iqtisodiyotga ko'ra nomoddiy aktivni garov sifatida qo'yib har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs bankdan kredit olishi mumkin. Yevropa davlatlari ushbu sohada huquqlarning va imkoniyatlarning likvidmaslini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra ayrim Yevropa davlatlari aniqroq aytganda Germaniya va Fransiya intellektual mulkdan garov sifati foydalanib faqatgina yuridik shaxslar bankdan kredit olish orqali intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy aylanmaga jalb qilish mumkin.

Ilmiy - texnik sohada davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadigan Osiyo

mintaqasining bir qator mamlakatlari qarz oluvchilar doirasiga cheklov joriy qiladi. Bu faqat kichik va o'rta biznes korxonalari, o'zlarini hamda o'z mahsulotlarini ham intellektual mulkni rivojlantiradigan texnologik startaplar asosida rivojlantirishiga imkon beradi. Yaponiyada Intellektual mulk obyektlarini garovga qo'yish asosida qarz oluvchilarga nisbatan qiziqarli eslatma mavjud bo'lib, unga ko'ra intellektual mulk huquqlar bilan ta'minlangan kredit oladigan kompaniya kreditni ta'minlashning boshqa vositalari va usullariga ega bo'lmasligi kerak.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, texnika texnologiya rivojlangan davrda intellektual mulk aktivlari tijoratlashtirish yoki iqtisodiy aylanmagan to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish biznes-sektori uchun qo'shimcha daromad manbai va raqobat ustuvorligini ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyekti uchun uning bozordagi qiymati mazkur subyektning nomoddiy aktivi hisoblanadigan intellektual mulkidaligini tan olish – "korporativ kapitalning (ustav capital to'g'risida so'z yuritilmoqda) moddiy aktivlardan ilmiy asoslangan bilimlarga tayangan sanoatga o'tish", ya'ni bunda qiymati jihatidan nomoddiy aktivlarda ifodalanadigan biotexnologiya va telekommunikatsiya vositalari, farmatsevtika yoki ilmiy-tadqiqotlarga o'tish bilan bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ripsas, S., Schaper, B., & Tröger, S. (2018). A startup cockpit for the proof-of-concept. *Handbuch entrepreneurship*, 263-279.
2. Lyamin, B., Ulanov, V., Cherkasova, T., & Milkova, O. (2020, September). Methodology of intellectual property objects commercial potential evaluation. In *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering* (Vol. 940, No. 1, p. 012072). IOP Publishing.
3. Сенченя, Г. (2018). Кредитование под залог интеллектуальной собственности. *Интеллектуальная собственность. Промышленная собственность*, (12), 7-18.
4. DeTrani, J. (2019). *IP-Backed Finance: When Using IP As Collateral Can Pay Dividends - Above the Law*.
5. WIPO (World Intellectual Property Organization). (2020). *The Role of Intellectual Property in Innovation and Economic Development*. Geneva: World Intellectual Property Organization.
6. EPO (European Patent Office). (2022). *Intellectual Property in the Digital Economy*. Munich: European Patent Office.
7. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). (2021). *The Economic Impact of Intellectual Property Rights in the Knowledge Economy*. Paris: OECD Publishing.
8. Merges, R. P., & Nelson, R. R. (2020). *Intellectual Property in the New Technological Age: 2019 Edition*. Aspen Publishers.
9. Rong, J., & Zhang, H. (2021). *Intellectual Property Licensing and Commercialization: Law and Practice*. Routledge.
10. Besen, S. M., & Raskind, L. J. (2019). *Intellectual Property: Legal and Economic Aspects*. Cambridge University Press.
11. Shapiro, C. (2022). *The Economics of Intellectual Property Rights*. University of California Press.
12. Kumar, R., & Singh, D. (2018). *Global IP and Technology Commercialization: Strategies for Success*. Springer.

13. Teece, D. J. (2018). Profiting from Innovation: Bringing the Knowledge Economy to Market. Harvard Business Press.



INNOVATIVE
ACADEMY